

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI BUXORO DAVLAT
UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA INSTITUTI MAKTABGACHA
TA‘LIM VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM NAZARIYASI VA
METODIKASI KAFEDRALARI**

**“BOSHLANG‘ICH VA MAKTABGACHA TA‘LIM SIFATI VA
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI:
INNOVATSIYA, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XALQARO
TAJRIBALAR”**

RESPUBLIKA ILMY-AMALY ANJUMANIMATERIALLARI

2022-yil, 13-14 may

BUXORO- 2022

Sinfdan tashqari o'quvchilar mustaqil o'qigan asarlarni hisobga olib borishga katta e'tibor qaratiladi. 1-2-sinfdan o'quvchilar kundalik daftarlariga mustaqil o'qigan asarlari nomi va muallifini yozib boradilar. 3-4-sinfdan o'quvchilar o'qigan asarlarini hisobga olib boruvchi, o'z munosabatlarini qisqa qilib yozib qo'yuvchi mazsus daftar tutadilar. Yil oxirida ota-onalar yig'ilishida, maktab pedagoglari kengashida mustaqil kitobxonlik darajasi yuksak o'quvchilar rag'atlantirib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik saviyasi targ'ib qilinayotgan asarlar, yozuvchilar ijodi, o'qilgan asar yuzasida uyushtirilgan bahz-munozaralar sifatiga bog'liq bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari o'qish darslari samaradorligini ta'minlovchi interfaol metodlardan foydalanish, o'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llash juda muhimdir. Jumladan, sinfdan tashqari o'qish darslarida uyushtiriladigan o'yinlar ko'ngilochar mashg'ulot bo'lmasdan, ta'limiy xarakterga ega bo'lishi, o'rganilayotgan asar mavzusini o'zlashtirishga, asar yuzasidan ta'limiy va tarbiyaviy xulosa chiqarishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova K., Matchonov S., Gulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir. 2009.
2. Mirqosimova.M.. “O'qituvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish”; T., 2006
3. Амонов У. С. Научный подход а. Фитрата к пословицам //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
4. O.R.Avezov. [Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies](#). American journal of social and humanitarian research 3 (No. 1), 546-550
5. Adizova Nigora, Adizova Nodira. [Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari](#). Conferences.
6. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District." *Middle European Scientific Bulletin* 10 (2021).
7. Дустова Д. С. и др. О педагогическом мастерстве //european research. – 2020. – С. 132-134.
8. Safarov F. S. et al. Effect of a tissue biostimulator on the embryonic and post-embryonic development of lambs //Ucen. Zap. Azerbajdzan. sel'skohoz. Inst., Ser. vet. – 1969. – №. 4. – С. 69-72.
9. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter “Decimal” at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
10. Saidova G.E, Roziyeva Z.S. Methods for improving the system of assessing pupils 'knowledge based on the qualitolgical approach. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* https://saarj.com.2020. 321-326.
11. Hayitov H. A. Qushlarga ibrat-hazrati xizr! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.
12. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel " Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. *Middle European Scientific Bulletin*
13. Xudoyberdiyeva N. Abdulla qodiriy asarlarida tarixiy inversiya va folklor xronotopi masalasi: //Научно-практическая конференция. – 2022.

INTENSIV TA'LIM ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI SIFATIDA

Oloqova O'g'iljon Mamanazarovna
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Umumiy o'rta ta'limda kompetensiyaviy o'quv dasturi o'quvchilarda fanga oid va tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Xususan, ona tili ta'limi orqali o'quvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyalar shakllanadi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida intensiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanib, o'quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: intensiv, intensiv ta'lim, kompetensiya, lingvistik kompetensiya, o'yin texnologiyasi.

Barcha sohalaridagi jarayonlarning jadallashuvi bugungi kunda Yangilanayotgan O'zbekistonning hayotiy haqiqatiga aylanib ulgurdi. Bu o'z navbatida ta'limni tashkil etishda yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Ta'limda turli xil texnologiyalar, ilmiy-axborot vositalarining joriy etilishi qisqa vaqt ichida katta hajmli ma'lumotlarni berish imkoniyatini vujudga keltirdi. Bu esa o'quvchiga birinchi mashg'ulotdan boshlab eng qisqa vaqt ichida talab qilinadigan o'quv materialining hajmini oshirishga imkon beradi. O'quv materialining hajmini oshirishda intensiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samarali usuldir.

“Intensiv” atamasi XIX asrning birinchi yarmida ilk bor rus pedagogik adabiyotlarida paydo bo‘lgan. Bu so‘z fransuz tilidan “qizg‘in”, “kuchaygan”, lotin tilidan – “baquvvat”, “jonli”, “tezkor”, “bo‘ronli”, ispanchadan – “cho‘zish”, “kattalashtirish”, “kengaytirish” deb tarjima qilinadi.

Intensiv ta‘lim pedagogik ensiklopediyada quyidagicha izohlanadi: (fransuzcha “intensif”, lotincha “intension” – “g‘ayrat qilish”, “kuchayish” “jadal”) tezkor amalga oshiriladiga o‘quv jarayoni. [2, 105]

Uzluksiz ta‘lim tizimi eskirgan bilim va yo‘nalishlarni muntazam ravishda yangilanishni talab qiladi. Yangi bilimlarni egallashga intiladigan, olgan bilimini amalda qo‘llaydigan va takomillashtiradigan har bir yosh avlod mamalakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadi. Hozirgi vaqtda o‘qituvchi pedagoglarga bolaga “o‘rgatish” bilan birga “bilim olishga qiziqtirish” vazifasi ham belgilab berildi. Endi o‘qituvchi o‘rgatish bilan birga bolada bilim olishga, yangilik yaratishga motivatsiya uyg‘ota olishi kerak.

Ta‘limdagi o‘zgarishlar o‘qituvchi rolining o‘zgartirishga olib keladi. Endilikda o‘qituvchi faqat boshqaruvchi emas, balki o‘quvchilar bilan hamkorlikni yo‘lga qoviyuvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. O‘quvchining roli ham o‘zgarib bormoqda, u nafaqat bilim oladi, balki ularni izlash, rivojlantirish, o‘ziga xos mahorat va qobiliyatlarga aylantirishda ishtirok etadi. Bugungi kunda ta‘lim tizimi nafaqat o‘quvchilarning aql-idrokini rivojlantirishga, balki ularning salohiyatini oshirish va rivojlantirishga qaratilmog‘i kerak.

Zamonaviy ta‘lim tizimi bolaning e‘tibori va harakatlarini yo‘naltirishi, boshqarishi, ularga mustaqil ta‘lim olishni va ularni hayotda qo‘llashni o‘rgatishi kerak. Bunday muammolarni an‘anaviy va intensiv mashg‘ulotlarni oqilona uyg‘unlashtirish orqali hal qilish mumkin. Intensiv mashg‘ulotlar bolaning aqliy salohiyatining rivojlanishida an‘anaviy mashg‘ulotlarga qaraganda bir qator afzalliklarga ega. Ushbu afzalliklar ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining bir-biri bilan faol muloqotiga asoslangan. Jumladan, I.V. Shestitko, I.A. Turchenko, Y.S. Shilova va S.V. Marshinalar “intensiv” atamasining ma‘no doirasi “taranglik va mustahkamlash” uchun sharoit yaratishga qaratilgan bo‘lib, ta‘lim maqsadiga erishishga imkon beradi, shuningdek, o‘quvchi qizg‘in faoliyat jarayonida yuz beradigan sifat va miqdoriy o‘zgarishlarga urg‘u beradi” deb ta‘riflaydilar. [5, 6]

G. K.Selevko o‘quvchilarni jonlantirish va intensivlashtirishga asoslangan pedagogik texnologiyalarni o‘yin texnologiyasi, muammoni o‘rganish, o‘quv materialining sxematik va ikonik modellari asosida mashg‘ulotlarni chuqurlashtirish texnologiyasi, daraja farqlash texnologiyalari, ta‘limni individuallashtirish texnologiyasi, dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi, guruh texnologiyalari, kompyuter (yangi axborot) o‘qitish texnologiyalari kabi bir qancha guruhlarga bo‘lgan.

Intensiv mashg‘ulotlarni intellekti yuqori, faol, ijodkor, shaxsiy salohiyatini to‘liq namoyon qila oladigan o‘qituvchi tashkil eta oladi.

A.P. Panfilova fikricha, o‘qituvchi intensiv mashg‘ulotlarning samaradorligini orttirishi uchun bir nechta shartlarni bajarishi lozim.

1. O‘qituvchi qobiliyatining ma‘lum bir texnologiyaning maqsadlari va vazifalariga muvofiqligi (o‘yin, mashq va boshqalar). Bunda o‘qituvchining roli qo‘llanayotgan texnologiya turi va maqsadiga qarab turlicha bo‘ladi. O‘qituvchi tashkilotchi-rahbar, kommunikator, psixolog va boshqa rollarni bajaradi.

2. O‘qituvchi guruh bilan muloqotda professional tajribaga ega bo‘lishi. O‘qituvchi diologik muloqot jarayonida an‘anaviydan farqli ravishda “subyekt-obyekt” shaklidan farqli ravishda “subyekt-subyekt” munosabatini o‘rnatishi lozim. Aynan diologik kommunikatsiyada munozarali bahslar bo‘lib o‘tadi, intensiv o‘zaro aloqada bo‘lgan barcha ishtirokchilarning faolligi tufayli muammo jamoaviy hal qilinadi. Shu bilan birga, ishtirokchilarning faoliyati o‘rtaga qo‘yilgan vazifani hal qilishga qaratilgan. Aynan o‘zaro muloqotda ishtirokchilar bir-birlarini, avvalo, muayyan muammoga har xil yondashuvlar, turli xil qarashlar bilan o‘zaro boyitadilar, bu esa eng maqbul echimni topishga imkon beradi.

3. O‘qituvchining shaxsiy yo‘nalishi. O‘qituvchi yangi texnologiyani shijoat va qiziqish bilan kutib olishi, yangiliklar va o‘zgarishga tayyor turishi va eng asosiysi, yangilikni o‘z faoliyatida qo‘llashdan cho‘chimasligi lozim.

Intensiv mashg‘ulotdan belgilangan maqsadlarni amalga oshirishni asosiy sharti mashg‘ulotning har xil tashkiliy shakllaridan foydalanish bo‘lib, bunda o‘quvchilar mustaqil ishni tanlov erkinligi, o‘zining shaxsiy individual-psixologik imkoniyatlarini namoyon etgan holda bajaradilar. Natijada ularning muloqotdagi ijodiy faolligi, munozaraga kirishuvchanligi va shaxsiy qobiliyatlarini amalda qo‘llay olishlari ortadi.

Darsda zamonaviy texnologiyalar, raqamli texnologiyalardan foydalanish esa dars vaqtining unumli sarflanishida qo‘l keladi. Qolgan vaqtda qo‘shimcha topshiriqlar bilan ishlash bir qator afzalliklarga ega. Xususan, o‘quvchilar turfa xil mazmundagi vazifalarni bajarishlari orqali ularda

kreativlik rivojlanadi, o'rganilayotgan predmet haqida kengroq tushunchaga ega bo'lishlari tasavvurlarining yanada kengayishiga, nutqiy va lingvistik kompetensiyalarning takomillashishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. Pedagogika ensiklopediya. 2 jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2015, - 376 bet.
3. Turdiyev N.Sh., Asadov Y.M. va boshqalar. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari (1-qism). – T.: O'zPFITI, 2015.
4. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent – 2017, -249 bet.
5. Шеститко И.В., Турченко И.А., Шилова Й.С., Маршина С.В. Интенсивное обучение: технологии организации образовательного процесса. – Светлая Роща, 2014. -136 с.
6. Амонов У. С. Научный подход а. Фитрата к пословицам //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
7. O.R.Avezov. [Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies](#). American journal of social and humanitarian research 3 (No. 1), 546-550
8. Adizova Nigora, Adizova Nodira. [Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari](#). Conferences.
9. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District." *Middle European Scientific Bulletin* 10 (2021).
10. Дустова Д. С. и др. О педагогическом мастерстве //european research. – 2020. – С. 132-134.
11. Safarov F. S. et al. Effect of a tissue biostimulator on the embryonic and post-embryonic development of lambs //Ucen. Zap. Azerbajdzan. sel'skohoz. Inst., Ser. vet. – 1969. – №. 4. – С. 69-72.
12. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
13. Saidova G.E, Roziyeva Z.S. Methods for improving the system of assessing pupils' knowledge based on the qualitolological approach. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* https://saarj.com.2020. 321-326.
14. Hayitov H. A. Qushlarga ibrat-hazrati xizr! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.
15. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel "Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. *Middle European Scientific Bulletin*
16. Xudoyberdiyeva N. Abdulla qodiriy asarlarida tarixiy inversiya va folklor xronotopi masalasi: DOI: 10.53885/edinres. 2021.33. 43.090 Nodira Xudoyberdiyeva, BuxDU o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2022.

TURKISTON O'LKASIDA USULI JADID MAKTABLARINING SHAKLLANISH JARAYONI, MUAMMOLARI VA TARAQQIYOTI

Amonov Ulug'murod Sultonovich,

BuxDUPI dotsenti

Sayidova Ziyna Yoqubovna,

BuxDUPI si 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola Turkiston o'lkasida usuli jadid maktablarining shakllanishining asosiy sabablari, maqsadlari ochishdan qanday maqsad ko'zlanganligi jadidchilarning, jumladan: I.Gaspirali, A.Avloniy, M.Behbudiy, I.Ibrat, A.Shakuriy, S.Siddiqiy, M.Abdurashidxonov, H.H.Niyoziylarning ilm-ma'rifat uchun ko'rsatgan jasoratlari, xizmatlari yangi usuldagi maktabning ,garchi mashaqqatli yo'l bo'lsa-da, uning imkoniyatlari,millatni uyg'otmoq uchun mazkur usuldagi maktabning ahamiyati ,uni tashkil qilishda ma'rifatparvarlarning bosib o'tgan yo'llari muammolari,bosqichma bosqich rivojlanishidagi yangi darsliklar, kutubxonalar, dars jadvali,o'quv jihozlari,ko'rgazmalarning yaratilishi, amaliy fanlarning ahamiyati va ta'limdagi taraqqiyot haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: darsliklar, maktab, jadid, taraqqiyot, muallim, kitob, qishloq, jamiyat, ijtimoiy, ilm, ma'rifat

XIX asr boshlarida Buxorodagi ma'rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar sistemasi hamda islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'la boshladi. Shunday islohot tarafdorlarini jadidchilar, ya'ni yangilik tarafdorlari deb atay boshladilar

XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud

.....	383
Norova Gulhayo Aslonovna. O'LIB BORAYOTGAN TABIAT YOXUD BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA TABIATNI ASRASHGA BO'LGAN KO'NIKMALAR SHAKLLANTIRISH.....	386
Ozodova Madina Hamza qizi. BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI TA'LIMINI IJODIY TASHKIL ETISH.....	388
Jo'rayeva Dilnoza O'ktam qizi. MAKTABGACHA O'QUV TARBIYA JAROYONIDA LOGOPEDIK ISHLAR ASOSIDA SOG'LOM AVLODNI TASHKIL ETISH CHORA VA TADBIRLARI	390
Ho'jamova Gulsevar Abdullajon qizi. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO'LLASHNING ZAMONAVIY METODLARI.....	392
Amonov Ulug'murod Sultonovich, Tohirova Risolat Rahmatullayevna. XALQ OG'ZAKI IJODI JANRLARINING DIDAKTIK AHAMIYATI.....	394
Yoqubova Hilola Asrorjon qizi, D.B.Axmedova. BOSHLANG'ICH SINFI DARSLARIDA MUAMMOLITA'LIM TEXNOLOGIYALARI	397
Абдуллаев Сухроб Сайфуллаевич. ЭСТЕТИКА ЦВЕТА В ВОСПИТАНИИ ПЛАСТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ АРХИТЕКТОРА	399
M.O'rinova. BOLALAR FOLKLORI –XALQ OG'ZAKI IJODINING ALOHIDA YO'NALISHI SIFATIDA.....	401
F.E.Eshdavlatov. BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH YO'NALISHLARI.....	404
H.S.Og'ayev. BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHISINING KASBIY RIVOJLANISH TRAYEKTORIYASI	406
N.A.Samandarova. TARIXIY - MADANIY MEROS VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA VATANPARVARLIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH.....	407
Rajabova Iroda Hamidovna, Ergasheva Gulzoda Baxtiyorovna. INSON RIVOJLANISHIDA TABIATNING ROLI HAQIDA QADIMGI QO'LYOZMALARDA YORITILISHI	409
Hakimova Nargiza Supxonovna. TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJTIMOY-HUQUQIY ME'YORLARGA HURMAT HISSINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	411
M.M.Otayeva. O'QUVCHILAR SHAXSIGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNING VOSITALARI ...	414
Г.М.Турлибаева. ИННОВАЦИОН МАКТАБДА ЎҚИТУВЧИНИНГ ИЛМИЙ ВА ИЖОДИЙ БИЛИМЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШИ	415
A'zamova B.M. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING GEOMETRIK TAYYORLASHNING MEZONLARI VA MAZMUNI	417
Mirzaliyeva G.A. BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI KO'P YECHIMLI MASALALARNI YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI.....	418
Axmedov G'. TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	420
Farmonova Saodat Sheraliyevna. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALAR NUTQINI TUZATISHDA LOGOPEDIK MASHG'ULOTLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	422
Normatova M.Z. SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARI O'QUVCHILAR O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH GAROVI.....	424
Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna. INTENSIV TA'LIM ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI SIFATIDA.....	426
Amonov Ulug'murod Sultonovich, Sayidova Ziyana Yoqubovna. TURKISTON O'LKASIDA USULI JADID MAKTABLARINING SHAKLLANISH JARAYONI, MUAMMOLARI VA TARAQQIYOTI.....	428
Atajonova M.M. GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TATBIG'I.....	430
H.A.Hayitov, G.B.Sharopova. AKMEOLOGIYA VA UNING O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRISHINI TASHXISLASHDAGI O'RNI.....	432
N.Z.Qodirova. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISH ...	434
Xamrayeva Diyora Burxon qizi. MTT KITOB DO'KONIDA KITOBXONLIK VA FOLKLORNI TARG'IB QILAMIZ	437
Muhsinova Umriya Barnoyevna. OILADA MEHNAT TARBIYASI ESTETIKASI.....	439
Икрамова А.А. ИНГЛИЗ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ШЕЪРИЙ ДРАМАГА ОИД ИЛМИЙ НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР	441